

**TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYAT VA MUHIT HAQIDA
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846588>

Suyunov G'olib

Nafasov Muhammad

Haydarov Samandar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar" kafedrasi Biologiya

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talaba yoshlar ongida ekologik madaniyat tushunchasini shakllantirish, muhit tabiat borliq haqita ma'lumot va uni asrab avaylash haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Talabalar, ekologik madaniyat, ekologik ong, muhit, tabiat, borliq, o'simliklar, hayvonlar, bevosita va bilvosita ta'sir.*

**МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ У УЧАЩИХСЯ ПОНИМАНИЯ
ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ.**

Аннотация: В данной статье рассматривались вопросы формирования в сознании студенческой молодежи понятия экологической культуры, знания о природе окружающей среды и ее сохранении.

Ключевые слова: студенты, экологическая культура, экологическое сознание, окружающая среда, природа, бытие, растения, животные, прямое и косвенное влияние.

**METHODS FOR THE FORMATION OF THEIR UNDERSTANDING OF
ECOLOGICAL CULTURE AND ENVIRONMENT IN STUDENTS.**

Annotation: In this article, the student reflects on the formation of the concept of ecological culture in the minds of young people, information about the existence of the environment nature and its preservation.

Keywords: students, ecological culture, environmental consciousness, environment, nature, being, plants, animals, direct and indirect influence.

Kirish

Yer yuzidagi yuzaga kelayotgan hozirgi kundagi Global muammolar nafaqat o'simliklar hayvonlar atrof-muhit tabiatga borliqqa ta'sir etibgina qolmasdan balki, insoniyatga ham juda katta ta'sir etib kelmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida atrof-muhit sohasidagi ta'lim masalalari texnika-texnologiya ekologik ong, ekologik

madaniyat eng muhim o'rirlarni egallaydi desak hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Buning asosiy sababi umumiylar atrof-muhitning tabiatning borliqning asosini albatta o'simliklar hayvonlar shu qatorda insonlar jamiyati tashkil etadi.

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoyimizda yer yuzida aholining keskin ortib borayotgani ishlab chiqarish ko'laming kundan-kunga ortib borishi, zavod korxona fabrikalarning soni ortib borayotgani, insoniyat ehtiyojlarining cheksizligi, tabiatga o'simliklarga hayvonot dunyosiga bo'lgan munosabatining hozirgi vaqtagi munosabati keskinlashib borayotgani ekologik ong, ekologik madaniyatning yo'qolib borayotgani achinarli holatga kelib qolmoqda.

Muhokama Va Natijalar

Ekologik ong, ekologik madaniyat insonlarda yoshligidan boshlab paydo bo'ladi, madaniyat ta'lim-tarbiya avvalo oilada, keyinchalik bosqichma-bosqich mактабгача ta'lim muassasalarida, undan keyin mактабда, kollej-litseylarda, oliy ta'limdargohlari oliygohlar institute va universitetlarda va undan ham yuqori ish jarayoni mактаблари, ishlab chiqarish korxona-tashkilotlarida xullas insonning butun umri davomida shakllanib boradigan uzlusiz jarayon deb qarash aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Garchi shunday ekan oilada ota-onalar farzandlari tarbiyasiga e'tiborsiz qarashga hech ham haqqi yo'q, ular ongida ekologik madaniyat ekologik ong, tabiatga bo'lgan mehr, o'simliklarni asrab avaylash, ularni parvarish qilish, suv quyish, taglarini yumshatish tadbirlarini o'rgatish nafaqat o'rgatish ko'rsatib berish onggiga singdirish, hayvonlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ularga zarar yetkazmaslik, ular bilan do'st bo'lib, birgalikda hamnafas bo'lib yashash kerak bo'lgan joyda ularni turli ovchilardan himoya qilish joyi kelganda shunga o'xshash holatlarga duch kelganda tegishli tashkilotlarga zudlik bilan xabar berish orqali ularning hayotini saqlab qolish lozim.

Ekologik madaniyat ekologik ta'limning asosiy maqsadi: yosh o'sib kelayotgan yoshlar onggiga atrof-muhit tabiat borliq tirik organizmlar haqida bilimlarni singdirish ularni asrab avaylash tabiat, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni singdirishdan iborat.

Qanday qilib ekologik madaniyatni shakllantirish kerak? Talaba yoshlarga tabiat tirik organizmlar haqida yetarlicha ma'lumotlar yetkazilishi lozim, o'quv yurtlarida o'simliklar o'stirilib ularni talabalar parvarishlab o'stirishlari (mehr ko'rsatishi), yosh biologlar hayvonot xonasi hayvonlarning tabiatga ijobiylari va salbiy ta'sirini o'rganishlari darslar mobaynida o'z bilimlarini chuqurlashtirib borishlari, dala amaliyotlari orqali har bir talaba bilan alohida individualni shug'ullanish ular qiziqtirgan har bir tur xoh o'simlik, xoh hayvon turi bo'lsin ular haqida to'liq ma'lumotlar yetkazilishi, hudud geografik joylashuv mintaqasi tabiat muhit haqida ham kerakli ma'lumotlarni yetkazib borilsa talabalarning tirik organizmlarga tabiatga muhitga bo'lgan bilimlariga bilim qo'shib brogan bo'lar edi ham nazariy ham amaliy ko'z bilan ko'rib bilimlari

mustahkamlanib o'z bilim malakalarini chuqurlashtirib borsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ekologik madaniyat albatta ekologik bilim asosida shakllanadi, lekin u o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Ekologik madaniyat insonda tabiatga nisbatan to'g'ri, oqilona munosabatni shakllantirish masalasi ustida ish olib boorish hisoblanadi va o'z oldiga talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdek dolzarb maqsadni qo'yadi.

Global ekologik muammolar sharoitida insonlarga tabiatni yoshlikdan himoya qilishni ongiga singdirib borish lozim, chunki atrof-muhit bilan bog'liq ko'plab qiyinchiliklar har bir inson uchun begona emas. Bular havo, tuproq va suvning ifloslanishi, global isish va kislotali yomg'ir, issiqxona effekti va biologik xilmillikning pasayishi, o'rmonlarning yo'q qilinishi va har xil turdag'i chiqindilar muammosi va boshqa ko'p narsalarni shularni jumlasidan misol qilib keltirish joiz. Muammoning mohiyatini ko'rib chiqsangiz, aksariyat ekologik falokatlarning odamlarning aybi bilan sodir bo'lishini anglastingiz mumkin, demak, uni to'xtatish faqat bizning Ekologik madaniyatimiz ekologik ongimizni o'zgartirsakgina bu muammolarni bartaraf eta olishga erishamiz.

Xulosa

Xullas gapning indallosi shuki, yer yuzida insoniyatga ong ato etilgani sababli tafakkur yuritganligi sababli u yer yuzida hukmron hisoblanadi, lekin afsuslar bo'lsinki insonlar qolgan turlar o'simliklar, hayvonlarga qaraganda tabiat atrof-muhitga ko'proq zarar yetkazishadi natijada yana qaytib insoniyat o'zi azoblanadi. Tabiatga qanday munosabbatda bo'linsa tabiat ham shunga qarab javob qaytaradi, biz insonlar tabiatga qancha zarar yetkazsak atrof-muhitni qancha ko'p chiqindi bilan ifoslantirsak tabiat bizni jazolaydi.

Insonlarning tashqi muhitga bo'lgan munosabatlari bevosita va bilvosita bo'ladi. Bevosita ta'siri yangi yerkarning o'zlashtirilishi, o'rmonlarning kesilishi, zavod korxona fabrikalarning haddan ziyod ortib ketishi, qurilish indisturiyasi kundan-kun jadallashuvi, oziq-ovqatda o'simliklarning ko'r-ko'rona foydalanilishi, hayvonlarning ovlanilishi va hokazo bularning barchasini misol qilib keltirish mumkin.

Hozirgi kunda insonlarning demografik portlash bilan o'sib borayotganligi va ularning ehtiyojlari cheksizligi, kun sayin ortib borayotganligi uning oqibatida tabiat muhit katta talofat ko'rmoqda.

Inson – ongli zararkunanda!

ADABIYOTLAR:

1. Ergashev A., Ergashev T. "Ekologiya, Biosfera, va tabiatni muhofaza qilish". T.:«Yangi asr avlod» 2015. o'quv qo'llanma. 28.081 YE67. U-6309
2. Ergashev A. "Umumiylar ekologiya" . T.:«O'zbekiston» 2013. o'quv qo'llanma. 28.081ya73 YE74. U-5936

3. Ekologik ta'limdan barqaror rivojlanish ta'limi sari. A.N.Nigmatovning umumiyl tahriri ostida // Qo'llanma: - T., Talgin, 2017
4. Nigmatov A.N., SHivaldova N.S., Sultonov R.N. Barqaror rivojlanishning ekologik jihatlari // Qo'llanma. – T.: Bioekosan, 2014.
5. To'xtaev A.S. , Xamidov A. "Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish" T. "O'qituvchi" 1994. (10 ta kirill alifbosida) o'quv qo'llanma. 28.08ya72 T98. U-5053
6. www.un.org/esa/sustdev/ – Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.
7. www.unesco.org –BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti sayti.